XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 2 - avgust VI-82-60-2-0-K/23 Buxoro viloyati hokimligi

“O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari uchun narx (tarif)larni tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasining 2022-yil 14-noyabrdagi 2760/01-06-son hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 28 dekabrdagi 01/06/20-05-38/403-son xatlariga asosan “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari uchun narx (tarif)larni tartibga solish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILDI:

1. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi hamda viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasining “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari uchun narx (tarif)lar yuzasidan xulosalari inobatga olinsin.

2. “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral quvurlari boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari uchun narx (tarif)larni quyidagicha:

1 m^3 oqova suv xizmati aholi uchun 585 so‘m *(QQS siz)*;

1 m^3 oqova suv xizmati byudjet tashkilotlari va ulgurchi iste’molchilar uchun 1400 so‘m *(QQS siz)* etib belgilash ma’qullansin.

3. “O‘ztransgaz” AJ Gazli magistral quvurlari boshqarmasi (Sh.Haydarov)ga tariflarni amalda qo‘llash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuni va tegishli qonun osti hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta’minlash topshirilsin.

4. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **b**